# VII. TRANSPORT VA ALOQA

**Yuk tashish.** Avtomobil transportida 11,9 mln. tonna yuk tashilgan bo‘lib, bu 2020 yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 0,4 mln. tonnaga ko‘pdir. Yuk aylanmasi 245,1 mln. tn-km ga yetdi va bu o‘tgan yilning mos dariga nisbatan 26,3 mln. tn-kmga ko‘p demakdir.

Yakka tartibdagi tadbirkorlarning avtomobil transportining yuk aylanmasi 2020 yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 101,1 % bo‘lib, 69,0 mln. tn-km ni tashkil qildi. Yuk aylanmasining umumiy hajmida xususiy yuk tashuvchilarning ulushi 28,1 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiyot tarmoqlarida kichik biznesning yuk tashish bo‘yicha ulushi 60,1 % ni tashkil etgan.

**Yuk tashish va yuk aylanmasi transport turlari bo‘yicha ifodalanishi**

| | 2021 yil yanvar-iyun | 2020 yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, % da |
|---|---|---|
| Tashilgan yuk, mln. tn. | 11,9 | 103,5 |
| *shu jumladan:* | | |
| Avtomobil transportida | 11,9 | 103,5 |
| Yuk aylanmasi, *mln. tn-km.* | 245,1 | 112,0 |
| *shu jumladan:* | | |
| Avtomobil transportida | 245,1 | 112,0 |

**Yo‘lovchi tashish.** 2021 yil yanvar-iyun oylarida barcha transport turlari tomonidan 207,3 mln. kishi tashilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 103,0 % ga ko‘paygan.

***Yo‘lovchi aylanmasi*** hajmi 4183,1 mln. yo‘lovchi-km, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 106,9 % ni tashkil etdi.

**Yirik korxonalar bo‘yicha:**

Viloyatda kuzatilayotgan davrda avtotransport ishi bo‘yicha hajmli korxonalar soni 42 tani tashkil etib, ular tomonidan quyidagi asosiy ko‘rsatkichlar shakllandi:

***Tashilgan yuklar*** hajmi 0,8 mln. tonna, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 145,3 % ni tashkil etdi (jami viloyatda tashilgan yuklar hajmidagi ulushi 6,5 %);

***Yuk aylanmasi*** hajmi 28,8 mln. tn-km, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 3,3 martani tashkil etdi (jami viloyat yuk aylanmasi hajmidagi ulushi 11,8 %);




***Tashilgan yo‘lovchilar*** hajmi 5,3 mln. yo‘lovchi, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 163,4 % ni tashkil etdi (jami viloyatda tashilgan yo‘lovchilar hajmidagi ulushi 2,5 %);

***Yo‘lovchi aylanmasi*** hajmi 380,2 mln. yo‘lovchi-km, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 2,5 martani tashkil etdi (jami viloyat yo‘lovchi aylanmasi hajmidagi ulushi 9,1 %).



Yo‘lovchi tashish aylanmasi ushbu davrda 106,9 % ga ko‘payib, 4 183,1 mln. yo‘lovchi-km ni tashkil qildi.



**4 183,1 mln yo‘lovchi-km**

**106,9 %**

Iqtisodiyot tarmoqlarida kichik biznesning yo‘lovchi tashish bo‘yicha ulushi 97,5 % ni tashkil etgan.

Kichik biznesning yo‘lovchi tashishda ulushi

- 97,5 %

Xususiy yo‘lovchi tashuvchilar avtomobil transportida yo‘lovchi aylanmasi 2020 yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 101,1 % bo‘lib, 3 802,9 mln. yo‘lovchi-km ni tashkil qildi. Yo‘lovchi aylanmasining umumiy hajmida xususiy yo‘lovchi tashuvchilarning ulushi 90,9 % ni tashkil etdi.